



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 13 (908)
22-avgust, shanba
2020-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiqqa
boshlagan

ERISHILGAN YUTUQLAR YANADA MAS’ULIYAT YUKLAYDI

**B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati**

Dunyo hamjamiyati uchun hamon dolzARB bo‘lib turgan koronavirus epidemiyasi sababli odatiy turmush tarzimizga bir qancha o‘zgarishlar kirib keldi. Bu albatta, har bir sohaning oldiga qator masalalarni qo‘ydi. Jumladan, ta’lim tizimiga ham o‘z tasirini o‘tkazdi. Shu bois, mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim dargohlari qatorida bizning jonajon muassasamiz – Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida ham 2020–2021 o‘quv yilida ta’lim jarayoni masofaviy shaklda onlayn rejimda olib boriladi.

Institutimiz jamoasi yuqorida qayd etilgan masalalar bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirdi. Binobarin, masofaviy ta’limning asosiy maqsadi – ta’limning uzviyligini taminlash, pirovardida o‘z kasbining mohir egasi bo‘ladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun, avvalo, yangi ta’lim dasatur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Bu o‘z-o‘zidan institutimiz jamoasi oldiga mas’uliyatlari vazifalarni yuklaydi. Chunonchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish; o‘quv-uslubiy materiallar majmuasini tayyorlash va elektron resurslar platformasiga joylashtirish hamda talabalarga undan foydalanish uchun qulay imkoniyat yaratish; Fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda masofaviy onlayn ta’lim platformasini belgilash va talabalarga yetkazish; Onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etish va uni o‘tkazishda kafedra mudiri, o‘quv ishlariiga mas’ullarning davriy ishtiroti va nazoratini ta’minalash; Nazorat turiga bog‘liq holda uning shaklini belgilash; Mashg‘ulotlarni dars jadvaliga qat’iy rioya qilgan holda o‘tkazish;

Elektron jurnalni talab darajasida yuritish va institut rasmiy veb-saytidagi kafedra sahifasida tegishli ma’lumotlarni berib borishni taqazo etadi.

O‘tgan 2019–2020 o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarimiz tomonidan 19 nomda darslik, 33 nomda o‘quv-qo‘llanma, 31 nomda monografiya, 741 ta ilmiy maqolalar chop etilganligini hisobga olsak, o‘ylaymanki, talabalarimizni o‘quv-adabiyotlari bilan ta’minalash bilan bir qatorda, dunyo pediatrlarini qiziqtirib kelayotgan ko‘plab masalalarga ilmiy munosabatlarni taklif qilinyapti.

Institutimiz o‘tgan o‘quv yilida ilmiy daraja va ilmiy unvonga sazovor bo‘lgan pedagoglar bilan yanada boyidi. Jumladan, professor 2 nafarga, dotsent 6 nafarga, tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyani himoya qilganlar 10 nafarga, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilganlar 23 nafarga oshdi. Bu professor-o‘qituvchilarimizning izlanayotganidan dalolatdir.

Qayd etilgandek, professor-o‘qituvchilarimizning jonkuyarligi natijasida institutimizda ta’lim olayotgan yoshlar orasidan 2 nafar talaba – “Mard o‘g‘lon”, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, 3 nafar talaba – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga, Ibn Sino nomidagi Davlat stipendiyasi hamda 1 nafar talaba – O‘zbekiston Vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasiga sazovor bo‘ldi.

Joriy 2020–2021 o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarimiz va talabalarimiz bundan-da, yuqori natijalarni qo‘lga kiritish uchun, albatta, ta’lim sifatini yanada oshirishi kerak bo‘ladi. Shu bois, har birimizda 2-sentyabr kunidan masofaviy shaklda onlayn rejimda II va undan yuqori kurslarda o‘qishi boshlanadigan – bakalavriat, magistratura, klinik ordinaturalar uchun qanday ishlarni amalga oshirildi, oktyabr oyidan o‘qish kredit-modul tizimi asosida o‘qish boshlanadigan – I kurs talabalari uchun qanday tayyorgarliklar bor, degan haqli savol paydo bo‘ladi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti professor-o‘qituvchilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalaniadi. Elektron resurslar platformasi ga joylashtirish hamda talabalarga undan foydalanish uchun qulay imkoniyat yaratish borasida ham katta tajribaga ega.

Ammo talabalarimizni eng so‘ngi ilm-fan yutuqlaridan xabardor qilish va ularni zamon talabiga mos yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash uchun jamoamizdan yanada ilmiy salohiyatini oshirish; ilmiy grant loyihamini tayyorlash va tanlovda ishtirot etish; xalqaro ilmiy jurnallarda («Web of Science», «Scopus» va boshqa xalqaro e‘tirof etilgan bazalarga kiritilgan jurnallarda) chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini oshirish; Scopus ma’lumotlar bazasida qayd etilgan nashrlarda iqtibosliklar sonini oshirish; Innovatsion ishlanmalar bo‘yicha xo‘jalik shartnomalarini tuzish va ishlanma mualliflarini rag‘batlantirish; Ilmiy-innovatsion mahsulotlarni tijoratlashdirish talab qilinadi.

Shuningdek, masofaviy ta’lim davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishning ta’sirchan usullari joriy etiladi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirda professor-o‘qituvchilar hamda talabalarini to‘liq qamrab olish, adabiy-ma’rifiy kechalarini mazmunan boyitish choralar ko‘riladi.

2020–2021 o‘quv yilida ta’lim jarayoni masofaviy shaklda onlayn rejimda tashkillashtirilgan o‘quv-uslubiy seminarlar, ma’naviy-ma’rifiy suhbatlar, seminar-treninglarda ta’lim muassasasi tomonidan olib borilayotgan ishlarni o‘zining yuksak samarasini beradi, albatta.

Muxtasar qilib aytganda, talabalarimiz ilm olishlari uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Bundan foydalanib, ular yurtimiz ravnaqiga o‘zining salmoqli hissasi ni qo‘shadigan, yurtdoshlarimiz salomatligi yo‘lida chin dildan xizmat qiladigan shifokor bo‘lishga harakat qilishi lozim. Zero, ajodolarimiz har daqiqani g‘animat bilib, muqaddas kitoblarda aytligandek, ilm o‘rganishni beshikdanoq boshlashgan.

TALABALAR ONLAYN RESPUBLIKA FAN OLIMPIADASI

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va intellektual salohiyatini oshirish maqsadida har yili talabalar o'rtaida Respublika fan olimpiadasi o'tqazilib kelinadi. Joriy yilning 20-28-may kunlari koronavirus pandemiyasi sababli Respublika fan olimpiadasi onlayn tarzda bir bosqichda o'tqazildi. Onlayn Respublika fan olimpiadasi platformasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etildi.

Mazkur olimpiadada oldiga katta maqsadlar qo'ygan, egallayotgan kasbining sir-asrorini ustozlaridan qunt bilan o'rganayotgan 207 nafar talaba 12 ta fandan bilimlarini sinovdan o'tqazdi. Qatnashchilardan 11 nafar iqtidorli talabamiz 7 fan bo'yicha faxrli – 1-, 2-, 3- o'rnlarni egallashdi. Bu albatta, institutimiz ilmiy jamoatchiligining yutug'i desak yanglishmaymiz.

G'alaba muborak aziz ustozlar!



Doimo yosh avlodning ta'lim-tarbiysi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ustozlar erishgan yutuqqa, ular to'plagan boy tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlар zimmasiga tushgan.

Shu boisdan ham mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Pandemiya sababli ta'lim tizmi oldiga qo'yilgan vazifaning murakkabligi shunda ediki, qisqa muddat ta'lim muassasalarini yangi talablarga javob bera oladigan murabbiylar dasturlar, texnik jihozlar bilan ishlashi zarur edi.

Institutimiz mutaxassislar sa'y-harakatlari bilan bu ishlar a'lo darajada bajarildi. Shu bois, onlayn Respublika fan olimpiadasida talabalarimiz yuqori natijalarni qo'lga kiritdi.

Keling, g'olib talabalarimiz va ularning ustozlari bilan tanishaylik.

Mohira Boltayeva – Kimyo fanidan 1-o'rin, Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti, davolash ishi 101-guruh talabasi, ustozi Z. Ikramova – Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiy genetika kafedrasi dotsenti.



Farangiz Nabiyeva – Rus tili fanidan 1-o'rin, Davolash ishi fakulteti, 206-guruh talabasi, ustozi K. Sh. Turdiyeva – O'zbek, rus va lotin tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlati nomzodi, dotsent.

Feruzabonu Ernazarova – Farmakologiya fanidan 1-o'rin, Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti, davolash ishi 304-guruh talabasi, ustozi Sh.T. Ziyayeva – Farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti.

Dilnora Yusupaliyeva – Terapiya mutaxassislik fani dan 1-o'rin, Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti,

davolash ishi 505-guruh talabasi, ustozi G.A. Karimjanova – Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, Hospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi kafedrasi assistenti.

Firdavs Nomozov – Sud tibbiyoti fanidan 2-o'rin, Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti, davolash ishi 407-guruh talabasi, ustozi X.X. Yakubova – Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrasi dotsenti.

Jayrona To'xtayeva – Sud tibbiyoti fanidan 2-o'rin, II-Pediatriya fakulteti, pediatriya ishi 410-guruh talabasi, ustozi O.J.Qo'ziyev – Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrasi dotsenti.

Do'sxon O'razxanov Pediatriya fanidan 2-o'rin, Pediatriya fakulteti, pediatriya ishi 516-guruh talabasi, ustozi Sh.Sh. Shomuradova – 1-Gospital pediatriya kafedrasi, t.f.n., assistent.

Yunus Mirsultonov – Nevrologiya fanidan 3-o'rin, I-Pediatriya fakulteti, pediatriya ishi 510-guruh talabasi, ustozi U.T. Babadjanova – Asab kasalliklari, bolalar asab kasalliklari va tibbiy genetika kafedrasi asisstanti.

Nozima Saidova – Sud tibbiyot fanidan 3-o'rin, I-Pediatriya fakulteti, pediatriya ishi 418-guruh talabasi, ustozi O.J.Qo'ziyev – Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrasi dotsenti.

Shahnazar Beknazarov – Farmakologiya fanidan 3-o'rin, Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti, davolash ishi 302-guruh talabasi, ustozi A.A. Yunusov – Farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti.

Shavkat Abdusattarov – Pediatriya fanidan 3-o'rin, I-Pediatriya fakulteti, pediatriya ishi 418-guruh talabasi, ustozi Sh.Sh. Shomuradova – 1-Gospital pediatriya kafedrasi, t.f.n., assistenti.

Maqsadga aylangan orzular

– Pediatriyani tanlaganimni sababi, sohaning mutaxassislari kam. Bu esa, albatta, soha sinoatlarini egalashga undadi. Shu bois, institutimiz klinikasining

reanimatsiya bo‘limida ustozim Sh.Shomuradovaning yonida 3 yildan buyon bolalar kasalliklari bo‘yicha ham



amaliy, ham nazariy bilimlarimni os-hirib kelaman. Bu fan olimpiadasida g‘olib bo‘lishimda qo‘l keldi, – dedi Shavkat Abdusattarov. – O‘tgan yili ham Rassiyaning Sank Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro olimpiadada Pediatriya fanidan ishtirok etgandim. 2019-yil Andijon viloyatida bo‘lib o‘tgan xalqaro olimpiada

ham eng yaxshi pediatrlar yo‘nalishida 1-o‘rinni egallaganmiz.

Shavkat Abdusattorovning fikr-mulohazalaridan bilinib turibdiki, u o‘z oldiga katta maqsad qo‘yib ilm olayapti. Kelgusida o‘z kasbining mohir egasi bo‘lib yetishishiga hech shubha yo‘q.

– Ustozim – O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Kavsar Sheraliyevnaning katta xizmati bor, – dedi Farangiz Nabiyeva. – O‘quvchilik yillarimda chet tillarini yaxshi o‘rganman. Bunga, avvalo, ota-onam rag‘bat ko‘rsatishgan. Shu bois, ona tilimiz qatorida rus va ingiliz tillarini ham o‘rgandim. Xalqimiz bejingga «Til bilgan – el biladi» deb aytmagan ekan. Chet tillarni o‘zlashtirganim bugun menga qo‘l keldi. O‘ylaymanki, ilm olishning kaliti til o‘rganishda. Negaki, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish uchun chet tillar dunyoning ilg‘or tajribalaridan boxabar bo‘lish imkonini beradi.

Ta’lim maskanida talaba-yoshlarning bilimini mustah-kamlash, ularga ijodiy salohiyati va iqtidorini namoyish qilish uchun imkoniyat yaratish, yoshlarda jamiyat hayotiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish, shuningdek, respub-



lika miqyosidagi tanlovlarda mu-nosib ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratilgan. Respublika fan olimpiadasida yuqori natijalarni qo‘lga kirit-gan talabalar va ularning ustozlari bilan tanishasiz. Biz ularning har biri bilan, albatta, faxlanamiz.

– Kimyo fanini bir necha yil davomida o‘rgandim, xalqaro olimpiadalarda qatnashdim va u orqali tibbiyotdagi turli sohalarga yo‘l ochilishini angladim, – deydi Kimyo fanidan 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan davolash ishi 101-guruh talabasi Mohira Boltayeva. – Orzuim yetuk shifokor bo‘lish hamda xalqa-ro olimpiadalarda qatnashadigan darajadagi shogirdlar tayyorlash. Orzularim maqsadga aylanishi yo‘lida tinmay izlanishda davom etaman. Zero, intilganga tole yor!

– Aynan Sud tibbiyoti espertizasi faniga qiziqishimning sababi, bu fan inson ichki a’zolarini o‘rganib, ulardagi bo‘lib o‘tgan jarayonlarni soatma-soat aniq aniqlash imkonini be-

radi, – deydi Sud tibbiyoti fanidan 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan pediatriya ishi 410-guruh talabasi Jayrona To‘xtayeva. – Bu fan umuman o‘zgacha, qaysidir ma’noda inson huquqlarini himoya qilishdek vazifani o‘z zimmasiga oladi. Maqsadim bu fanni mukammal o‘rganib yetuk mutaxassis bo‘lish. Zero mashqda toblangan jangchi kurashda yengilmas!

– Nevrologiya fani qiziqarli va o‘ziga xos murakkabliklari menda nevrologiya faniga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otdi. Shuning uchun ham, men olimpiadada aynan nevrologiya fanidan ishtirok etishga qaror qildim, – deydi Nevrologiya fanidan 3-o‘rin egallagan pediatriya ishi 510-guruh talabasi Yunus Mirlsultonov. – Kelajakda nevrologiyaga oid bilimlarni chuqur egallab, O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlanishiga o‘z hissamni qo‘sish shish niyatidaman. Shuningdek, nevrologik kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash metodikasini ishlab chiqish oliy maqsadimdir. Barcha teng-doshlarimga oilaviy baxt, xotirjamlik va hayot yo‘llarida muvaffaqiyat tilayman.

Talabalarning gap-so‘zlaridan ularning chanqoqlik bilan ilm olayotganligi ko‘rinib turubdi ular ertaga, albatta, insonlar dardiga malham bo‘ladigan mutaxassislar bo‘lib yetishadi.

Munosib rag‘bat

G‘oliblar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan maxsus diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, institutimiz tomonidan g‘olib talabalarimizning ustozlari – ilmiy rahbarlari moddiy rag‘batlantirildi.

Yoshlarning orzu-maqsadlari bilan qiziqmagan, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatmagan millatning kelajagi ham bo‘lmaydi. Yoshlar bilan ishlashni, ularning orzu-o‘yлari bilan shug‘ullanishni, oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, taraqqiy etishida ularning fikrlari, g‘oyalarini qo‘llashni tizimli amalga oshirishning ahamiyati katta.

**Ziyoda KARIMOVA,
Iqtidorli talabalar bilan ishslash bo‘limi
boshlig‘i**

UCH ELAK

Gazetalarimiz sahifalarida muntazam olib borilayotgan “Ma’naviyat bo’stoni”ning bu chiqishida Yo Xannes Rozlerning “Uch elak” hikoyasini e’tiboringizga havola qilmoqchimiz. O’ylaymizki, bu hikoya talabalarimiz uchun foydadan holi bo’lmasa kerak.

Hamsoyasining oldiga bittasi kelib dedi:

– Menga qara, do’sting Kuns sen haqingda shunday gaplar aytdiki, eshitsang...

– To’xta, – uning so’zini bo’ldi qo’shnik, – menga so’zlab berishdan oldin shu gaplaringizni “uch elak” dan o’tkazganman deb va’da bering.

– Qanaqa uch elak?

– Avvalo haqiqat elagi, izohladi qo’shnik, – menga xabar qiladigan narsang rostligini tekshirdingmi?

– Yo‘q, uni eshitdim, xolos, menga yetkazishdi.

– Unda sen, albatta, bu gapni ikkinchi, quvonch g’alviridan o’tkazgan bo’lishing kerak. Aytadiganing haqiqat bo’limgan holda ham meni quvontiradigan narsadir.

– Yo‘q!

– Magar u meni shodlantirmas ekan, balki uchinchi – foyda elagidan elangandir. Ayt-chi, xabaringning men-ga foydasi bormi?

– Yo‘q, hech qanday.

Shunda hamsoyam:

– Unda gapirma, aytmoqchi bo’lganining na haqiqat, na yoqimli va na foydali bo’lmasa, o’zingga buyur-sin. Iloji bo’lsa sen uni unutib yubor!

ORZU

Shu gullagan hur yurtning
Umid niholi bizlar.
Kelajak poydevori –
Navnihol og‘il-qizlar!
Buyuk Temur avlodni,
Navoiyning so‘zimiz.
Ulug‘bekni rom etgan –
Ko‘kdagi yulduzimiz.
Bugun tan oldi dunyo
Yurt ishongay bizlarga,
G‘olib nishonlar bilan

Mag‘rur boqing ko‘zlarga!
Irmoqlar daryo bo‘lar,
Daryolar bo‘lar dengiz.
Bir kun ona Vatanim –
Dunyoda bo‘lar tengsiz!

Munisa Karimova

* * *

Xayollarim so‘qmoqlaridan
O‘tib borayapman birma-bir,
Dil ezilar qiynoqlaridan

Qay manzilga chorlaydi taqdir.
Ezguliklar boshlasin bizni
Ertasi oq oppoq kunlarga,
Tuprog‘idan maysadek unib,
Yurt quchog‘in to‘ldiray zarga!
Yaxshiliklar yarashar bizga,
Yaxshilik deb yashaydi yurak
Har kun yerda barq ursin kurtak –
Yarashaylik Vatanimizga!

Dilorom Shodmonqulova

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:

PROFESSORLAR: Fakultet ichki kasallikkari, XDT, kasb kasallikkari, gospital ichki kasallikkari, ichki kasallikkari propedevtikasi.

DOTSENTLAR: Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Bolalar stomatologiyasi; Gospital bolalar xirurgiyasi.

KATTA O‘QITUVCHILAR: Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish.

ASSISTENTLAR: Sud tibbiyoti, tibbiyot huquqi; Topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari; Ambulatoriya tibbiyoti, jismoniy tarbiya; Tibbiy radiologiya; Gospital bolalar xirurgiyasi; UASH-terapiya; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Shoshilinch pediatriya, halokat tibbiyoti; Gistologiya.

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1-oy Manzilgoh- Bog“ishamol ko‘chasi, 223, Tosh PTI.
Avtobuslar: 115,19 ToshPTI bekti. 2020.22.08.**

 <p>SALOLIK - TUMAN BOYLIGI ХУДОЖНИК - МОСТОСТ СТРУМЫ PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas‘ul: R. G‘o‘chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay‘ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223 Cho‘pon nomidagi NMU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko‘chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nuxsa. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	---	--	--